

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA PEDAGOGIK YONDOSHUV

Isoqjonova Dilfuzaxon Muxtorjon qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU

surdopedagogika va maxsus pedagogikaning

klinik asoslari kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20921529>

Annotatsiya: Ushbu tezisdá eshitishida nusoni bo'lgan o'quvchilarda ta'lim jarayonida muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondoshuvlari va ularning mazmuni haqida so'z boradi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические подходы, направленные на формирование коммуникативных навыков у учащихся с нарушением слуха в процессе обучения, а также раскрывается их содержание.

Annotation: This thesis discusses pedagogical approaches aimed at developing communication skills in students with hearing impairments during the educational process and examines their content.

Kalit so'zlar: muloqot ko'nikmasi, nutqiy material, pedagogik yondoshuv, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, faoliyatga asoslangan yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik hamkorlik.

Ключевые слова: Коммуникативный навык, речевой материал, педагогический подход, личностно-ориентированный подход, деятельностный подход, компетентностный подход, педагогическое сотрудничество.

Keywords: Communication skill, speech material, pedagogical approach, learner-centered approach, activity-based approach, competency-based approach, pedagogical cooperation.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilish, ularning ta'lim olish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlashda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Muloqot insonning fikr almashishi, o'z ehtiyojlarini ifodalashi va atrofdagilar bilan samarali munosabatlar o'rnatishining asosiy vositasidir. Eshitish qobiliyatining cheklanganligi esa bolaning nutqiy, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, pedagogik faoliyatda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan maxsus yondashuvlardan foydalanish zarur hisoblanadi.

Eshitish nuqsoni bolaning tilni o'zlashtirish jarayonini murakkablashtiradi. Natijada bolada lug'at boyligi tengdoshlariga nisbatan kamroq bo'lishi mumkin, nutq talaffuzida qiyinchiliklar kuzatiladi, og'zaki nutqni tushunish darajasi pasayadi, muloqot jarayonida o'z fikrini erkin ifodalashda qiyinchilik yuzaga keladi; ijtimoiy moslashuv va tengdoshlar bilan munosabatlarda muammolar paydo bo'lishi mumkin. Shu bois pedagogik ishlar bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi talab etiladi. Ta'lim jarayonida eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda muloqotni shakllantirishga qaratilgan ishlar tizimi bolalarga alohida pedagogik yondoshuvni talab etadi. Quyida eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning ayrim pedagogik yondoshuvlari keltirilgan:

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv - Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv eng samarali pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvning asosiy mohiyati har bir bolaning individual xususiyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, rivojlanish darajasi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdan iborat. Bunda bola pedagogik jarayonning markaziy subyekti sifatida qaraladi. An'anaviy ta'limda barcha o'quvchilarga bir xil talablar qo'yiladi va bir xil metodlardan foydalaniladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv esa har bir bolaning o'ziga xosligini e'tiborga oladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning eshitish darajasi, nutq rivojlanishi, lug'at boyligi, imo-ishora tilini bilishi va kommunikativ tajribasi turlicha bo'lganligi sababli ularga individual yondashuv zarur. Mazkur yondashuv pedagogdan har bir o'quvchining imkoniyatlarini chuqur o'rganishni, uning kuchli tomonlariga tayangan holda rivojlantirish ishlarini olib borishni talab qiladi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv - Faoliyatga asoslangan yondashuv zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, unga ko'ra shaxsning rivojlanishi turli faoliyat turlari jarayonida amalga oshadi. Ushbu yondashuvning nazariy asoslari psixolog olimlar L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev va S.L.Rubinshteynlarning ilmiy qarashlariga tayanadi. Ularning ta'kidlashicha, bola bilimlarni tayyor holda qabul qilmaydi, balki amaliy faoliyat, muloqot va ijtimoiy tajriba orqali o'zlashtiradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda faoliyatga asoslangan yondashuv alohida ahamiyatga ega. Chunki bunday bolalar uchun muloqot faqat nazariy bilim emas, balki amaliy faoliyat davomida shakllanadigan hayotiy kompetensiyadir. Shuning uchun ta'lim jarayonida o'quvchilarni turli kommunikativ vaziyatlarga jalb etish, ularga faol ishtirok etish imkoniyatini yaratish muhim hisoblanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv - Kompetensiya — bu shaxsning ma'lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tajriba va shaxsiy sifatlarining integratsiyalashgan majmuasidir. Kommunikativ kompetensiya esa insonning turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali muloqot qilish, o'z fikrini ifodalash, suhbatdoshni tushunish va muloqot madaniyatiga rioya qilish qobiliyatini anglatadi. Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv muhim pedagogik konsepsiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi o'quvchilarga faqat nazariy bilim berish emas, balki ularda hayotiy vaziyatlarda samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirishdir. Kompetensiyaviy yondashuvda o'quvchi egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishi, muammolarni hal qilishi va turli kommunikativ vaziyatlarda mustaqil harakat qila olishi muhim hisoblanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ushbu yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ular uchun muloqot vositalaridan to'g'ri foydalanish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish va kundalik hayotda samarali muloqot qila olish muhim hayotiy ehtiyoj hisoblanadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda nafaqat pedagogik yondashuvlar, balki ota-ona bilan yo'lga qo'yilgan samarali va tizimli faoliyat ham alohida ahamiyatga ega. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish uzoq muddatli va uzluksiz pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati nafaqat ta'lim muassasasida olib borilayotgan ishlar, balki oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi samarali hamkorlikka ham bog'liq. Oila bolaning birinchi ijtimoiy muhiti bo'lib, unda dastlabki muloqot tajribalari shakllanadi. Shu sababli ota-onalarning faol ishtiroki

bolaning kommunikativ rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ko'p vaqtini oilada o'tkazadilar. Agar maktabda shakllantirilayotgan muloqot ko'nikmalari uy sharoitida mustahkamlanmasa, kutilgan natijaga erishish qiyinlashadi. Shu bois pedagog, mutaxassis va ota-onalar o'rtasida uzviy hamkorlik yo'lga qo'yilishi zarur.

Yuqoridagi ish yo'nalishlari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishni rag'batlantiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mamarajabova Z.N. Korreksion pedagogika: eshitishda nuqsoni bor o'quvchilarning nutqini rivojlantirishning pedagogik tizimi (ilmiy maqola). Toshkent: TDPU nashrlari, 2024.
2. Mamarajabova Z.N., Malikova X.I., Isoqjonova D.M. Ona tili o'qitish texnologiyasi. Darslik. – Toshkent 2023.
3. Matchonov S. va boshq. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 696 b.
4. Мамаражабова З. Н. ОБУЧЕНИЕ РАЗГОВОРНОЙ РЕЧИ ГЛУХИХ УЧАЩИХСЯ ПЕРВОГО КЛАССА В СПЕЦИАЛЬНОЙ ШКОЛЕ //НАУКА И ОБРАЗОВАНИЕ СЕГОДНЯ Учредители: Олимп. – 2021. – №. 10. – С. 23-24.